


№468, 25-yanvar, 2022 y.



COVID-19 ga qarshi vaksinalarning
ishlanmalari bo'yicha

DAYJEST

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi











Toshkent-2022

Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2022 y. 24-yanvar holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	352 389 388	(+ 2 398 744)
Sog'ayganlar soni	-	279 821 312	(+ 1 396 372)
Vafot etganlar soni	-	5 615 249	(+ 5 135)

Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni

	AQSh	-	72 118 380	(+ 282 342)
	Hindiston	-	39 543 328	(+ 306 064)
	Braziliya	-	24 044 437	(+ 84 230)
	Buyuk Britaniya	-	16 692 432	(+ 301 614)
	Fransiya	-	15 865 238	(+ 55 312)
	Rossiya	-	11 108 191	(+ 63 205)
	Turkiya	-	10 947 128	(+ 65 503)
	Italiya	-	9 781 191	(+ 138 830)
	Ispaniya	-	8 975 458	(+ 101 811)
	O'zbekiston	-	216 186	(+ 1 123)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>



Kuchaytiruvchi doza “Delta” va “Omikron” koronavirus shtammlaridan kasalxonaga yotqizilishni oldini oladi

Amerika tadqiqot natijalariga ko'ra, kuchaytiruvchi doza COVID-19 infeksiyasi bilan kasalxonaga yotqizishni oldini olishda kamida 90% samaralidir. Bundan tashqari, uchinchi va to'rtinchi dozalar ham Delta ham Omicron shtamlari uchun samarali. AQSH Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlari (CDC) olimlari va mutaxassislari tomonidan olib borilgan yangi tadqiqotlar natijalariga ko'ra, kuchaytiruvchi vaktsina qabul qilinganda Omicron shtammidan himoyalanish sezilarli darajada oshadi [2].



Sog'liqni saqlash rasmiylarining ta'kidlashicha, bu AQSHda koronavirusning Omikron shtammiga qarshi vaktsinani himoya qilish bo'yicha birinchi yirik tadqiqotdir. Ma'lum bo'lishicha ilgari, mavjud vaktsinalar Omikron shtammiga qarshi samarali bo'lmay, balki kuaytiruvchi dozalar antitanalar darajasini oshirar edi.




Vaktsinaning samaradorligi Pfizer yoki Moderna vaktsinalarining uchinchi dozasini qabul qilgandan so'ng, COVID-19 bilan bog'liq tez yordam bo'limiga tashrif buyurishning oldini olishda eng yuqori ekanligi aniqlandi. Himoya Delta to'liqini davomida 94% dan, Omikron to'liqini davomida esa 82% gacha kamaydi. Faqat

ikkita doza vaktsinadan, ayniqsa ikkinchi dozadan keyin olti oy o'tganda himoya samaradorligi pastroq bo'ldi.

Mutaxassislar nafaqat infeksiya, balki jiddiy kasalliklarning ham oldini olish maqsadini ta'kidladilar. Shu munosabat bilan tadqiqot, uchinchi doza Delta va Omikron davrida COVID-19 kasalxonaga yotqizishni oldini olishda kamida 90% samarali ekanligini ko'rsatdi [3].





Tekshiruvlardan avval “Omicron” infeksiyasini bildiruvchi simptom ma’lum qilindi

Omicron shtammi bilan kasallanganda, infeksiya terlash va tomoq og‘rig‘i simptomlarni ko‘rsatishi mumkin. Bu haqda Chikago sog‘liqni saqlash departamenti komissari Allison Arvadi NBC Chikago telekanaliga bergan intervyusida ma’lum qildi [4]. Uning so‘zlariga ko‘ra, kasallikni ushbu belgilar bilan COVID-19 uchun test natijalaridan avval ham bilish mumkin.

"Tomoq og‘rig‘i - bu ijobiy COVID-19 testini ijobiy natijasini berishi uchun eng keng tarqalgan alomatdir. Tomoq og‘rig‘i ushbu shtammni bashorat qilishini ko‘rishimiz mumkin ", dedi Arvadiy.



Shifokor odamlarda tomoqdagi qichishish, og‘riq, yutish paytida og‘riq noqulayliklarni his qilsa, bemor uyda qolishiga chaqirdi. Doktor Arvadining ta’kidlashicha, har qanday darmonsizlik alomatlari, bugungi kunda hatto ular yengil, ahamiyatsiz bo‘lsa ham buning aksi isbotlanmagunga qadar, koronavirus infeksiyasining tasdig‘i hisoblanishi mumkin [5].

Mutaxassis COVID-19 kasalligining boshqa eng ko‘p uchraydigan alomatlari - burun oqishi, yo‘tal, bosh og‘rig‘i, charchoq va umumiy bezovtalik hissi, ishtahani yo‘qolishini simptomlari deya sanab o‘tdi. Shuningdek, quloq og‘rig‘i, bo‘g‘imlardagi og‘riqlar ham COVID infeksiyasining simptomlari bo‘lishi mumkin.

Buyuk Britaniyada ko'plab koronavirus cheklovlari olib tashlandi



Buyuk Britaniyada 27-yanvardan boshlab yopiq joylarda, maktablarda va transportda niqob taqish majburiyati olib tashlandi, shuningdek ayrim ommaviy tadbirlar, restoran va klublarga borish uchun emlash sertifikatini taqdim etish shart emas, hamda ish beruvchilar esa o'z xodimlarini ofisiga qaytarishlari mumkin, deb xabar berdi

Yevropa axborot agentligi Euronews.com [6].

Koronavirus infeksiyasi uchun faqat majburiy besh kunlik karantin qolmoqda, ammo Britaniya Bosh vaziri Boris Jonsonning so'zlariga ko'ra, bu talab tez orada bekor qilinishi mumkin.

"Bugungi kunda so'nggi ma'lumotlar Angliyada infeksiyaning darajasi pasayib borayotganini ko'rsatmoqda. Va ba'zi joylarda, jumladan, boshlang'ich maktablarda, holatlar soni ortib borishi mumkin bo'lsada, bizning olimlarimiz Omikron to'liqini hozirda milliy miqyosda eng yuqori cho'qqiga chiqqan deb



hisoblashadi, - dedi B. Jonson [7].



Bundan tashqari, asemptomatik tarzda koronavirus infeksiyasini yuqtirgan tibbiyot muassasalari va ijtimoiy xizmatlar xodimlariga ishlashga ruxsat berilishi mumkin. Avvalroq, Britaniya Bosh vaziri Jonsonning kengashi COVID-19 infeksiyasining yangi to'liqini sababli 2022-yil yanvar oyida o'rnatilgan karantin cheklovlari Buyuk

Britaniyada o'tkazilishi rejalashtirilgan barcha tadbirlarni bekor qilishga qaror qilgani haqida xabar berilgan edi [8].

Isroillik olimlar koronavirusga qarshi vaksinaning to'rtinchi dozasi ta'sirini baholamoqda

Koronavirusga qarshi vaksinaning to'rtinchi dozasi COVID-19 dan himoyani ikki baravar oshirishi mumkin. Buni isroillik olimlarning 23-yanvar, yakshanba kuni e'lon qilgan tadqiqoti ma'lumotlari tasdiqlaydi. Ma'lumotlar tahlili Isroil Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan Weizmann instituti, Technion, Ibroni universiteti, Gartner instituti Chaim Sheba tibbiyot markazi bilan hamkorlikda amalga oshirildi [9].




Natijalar 60 yoshdan oshgan odamlar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotlar ma'lumotlariga asoslangan bo'lib, ular to'rtinchi dozani olgan 400 000 kexsa isroillik, shuningdek, vaksinaning atigi uch dozasi olgan 600 000 isroillik ma'lumotlarini o'z ichiga oldi. Olimlar vaksinaning to'rtinchi dozasi bilan emlanganlarda kasallikning og'ir shakli uch barobar kamroq ekanligini aniqladilar.

Qayd etilishicha, Isroil yanvar oyi boshida to'rtinchi dozada koronavirusga qarshi emlash kampaniyasini boshlagan. Birinchi kunida vaksinani qabul qilish va olish uchun ro'yxatga 100 000 isroillik yozildi [10].



1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance // <https://www.worldometers.info/coronavirus/> (24.01.2022)
2. Бустерная вакцина предотвращает госпитализацию — исследование // <https://cursorinfo.co.il/coronavirus/busternaya-vaktsina-predotvrashhaet-gospitalizatsiyu-issledovanie/> (24.01.2022)
3. 3rd booster shots effective against severe illness from Omicron, CDC studies show // <https://www.timesofisrael.com/booster-shots-effective-against-severe-illness-from-omicron-cdc-studies-show/> (24.01.2022)
4. Назван симптом, который указывает на инфекцию Омикрон до проведения теста // <https://www.medikforum.ru/health/130758-nazvan-simptom-kotoryy-ukazyvaet-na-infekciyu-omikron-do-provedeniya-testa.html> (24.01.2022)
5. Назван симптом, позволяющий выявить "омикрон" до теста на COVID-19 // https://piter.tv/event/Nazvan_simptom_pozvolyayuschij_viyavit_omikron_do_testa_na_COVID_19/?utm_source=yxnews&utm_medium=desktop (24.01.2022)
6. Boris Johnson tells schools in England to end mask-wearing policy // <https://www.theguardian.com/education/2022/jan/21/boris-johnson-tells-schools-england-end-mask-wearing-policy> (24.01.2022)
7. Англия отменяет большинство коронавирусных ограничений // <https://ru.euronews.com/2022/01/19/covid-wrap-tuesday-evening> (24.01.2022)
8. В Великобритании отменили все боксерские поединки из-за новой волны коронавируса // https://www.inform.kz/ru/v-velikobritanii-otmenili-vse-bokserskie-poedinki-iz-za-novoy-volny-koronavirusa_a3880960 (24.01.2022)
9. Ученые оценили действие четвертой дозы вакцины от коронавируса // <https://iz.ru/1281245/2022-01-24/uchenye-otcenili-deistvie-chetvertoi-dozy-vaktciny-ot-koronavirusa> (24.01.2022)
10. Ученые оценили эффект от четвертой дозы вакцины от коронавируса // <https://1prime.ru/society/20220123/835865898.html> (24.01.2022)



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2022